

## **YOSH OILADA NIZOLI VAZIYATLARNING PSIXOLOGIK SABABLARI**

**Xasanova Diloram Xotamovna**

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti psixologiya yo'nalishi

I yillik magistratura talabasi

**Annotatsiya:** Oilaviy nizolarning eng xarakterlilaridan biri bu er va xotin o'rtasidagi nizolardir. Xo'sh, eng ezgu niyatlar bilan bir-birlarini sevib oila qurgan yoshlar nega oila qurishgandan keyin ularning o'zaro munosabatlarida nizo-janjallar ro'y beradi? Ular nima uchun urushadilar? Umuman er-xotinlik hayotida nizolarsiz, urush-janjallarsiz ham yashasa bo'ladimi? Bu kabi savollarni yana ko'p davom ettirish mumkin. Ushbu maqola shu haqda.

**Kalit so'zlar:** Yosh oila, nizo, psixologik sabab, tushunmovchilik, yechim, metod.

### **KIRISH**

Haqiqatdan ham ilk bolalikdanoq ko'plab ertaklar eshitib, keyinchalik o'zlari ham ularni turli kitoblardan o'qib o'sgan yoshlar o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlarini adekvat tasavvur eta olishlari mushkul. Chunki ertaklarda ham, kinofilmarda ham qahramonlar bir-birlariga yetishgunlariga qadar ne-ne mashaqqatlarni, zahmatlarni boshlaridan kechirib, bu yo'lda duch kelgan qora kuchlarni yengib, oxir-oqibatda visolga erishadilar, el-u yurtga «qirq kecha-yu qirq kunduz to'y berib, murod-maqsadlariga erishadilar». Deyarli barcha ertaklar, filmlar, ayniqsa, bizning yoshlarimiz, qizlarimiz sevib tomosha qiladigan hind Filmlari, aksariyat hollarda shu tariqa yakunlanadi. Bunga sizlar ham ko'p martalab guvoh bo'lisansizlar.

Bundan tashqari aksariyat niuvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yigit-qizlar o'z ota-onasi oilasini, ularning turmush tarzini, bir-birlarga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarini va qator shu kabilarni o'zlarining bo'lajak oilaviy havotlari uchun ideal deb olishadi va ular ham oila qurishganlaridan so'ng o'g'il bolalar xuddi o'z otasidek va qizlarimiz o'z onalaridek «ota», «ona», «er», «xotin» bo'lishni orzu qiladilar. Chunki ular o'z ota-onalari misolida, bir-birlariga nisbatan salbiy munosabatda bo`luvchi, bir-birlari bilan nizolashib turuvchi er-xotinlarni ko'rmanalar. Mabodo bunday vaziyatlar va nizolar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa ham ularning ota-onalari bu holatni farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali namunaviy ahil, baxtli oilalar haqida berib boriladigan materiallarda ham aksariyat hollarda er-xotinlik munosabatlarini bir yoqlama, faqat yaxshi tomondan ko'rsatish an'analari mavjud. Bularning hammasi yoshlarda oilaviy hayot haqida bir yoqlama ijobiy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'ladi<sup>1</sup>.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Shunday ertakmonand tasavvurlar, orzular og'ushida oila qurgan yoshlar, o'zlarining oilaviy hayotlarida dastlabki muammolarga duch kelishlari bilanoq, ularning oilaviy hayotlari o'zları kutganlaridek bo'lmayotganligi, turmush o'rtog'ini tanlashda «xato qilganligi», ular oldingi (to'ydan oldingi) holatiga nisbatan ma'lum darajada (albatta) «salbiy» tomonga o'zgarib qolganligi kabilarni «tushuna» boshlaydilar. Shuningdek, yosh oilada er-xotinlarning o'zaro munosabatlari rivojlanishining o'ziga xos qonuniyatları, ayniqsa, yosh o'zbek oilasida uning etnik, hududiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yosh kelin va kuyovning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishi jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar er-xotin munosabatlarida nizoli vaziyatlar va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin.

<sup>1</sup> D. Levinson. "Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik". Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (2013)

Afsuski, bunday jarayonlar deyarli har bir oila uchun muqarrar bo'lgan va aksariyat yoshlар oila qurish arafasida o'z nikohlaridan kutmagan jarayonlardir<sup>2</sup>.

Xo'sh bu jarayonlar, ya'ni er-xotin nizolari kerakmi? Ular er-xotinning o'zaro munosabatlariga qay darajada ta'sir etadi? O'tmish donishmandaridan biri haqli ravishda er-xotin nizolarini garmdoriga qiyoslagan ekan. Garmdori achchiq, lekin u me'yorda bo'lsa ishtahani ochadi, me'yordan ortib ketsa, og'iz, lab, tilni kuydirishi, noxush hissiyotlarni yuzaga keltirishi mumkin. Nizoli vaziyatlar har qanday oilada u yoki bu darajada yuzaga keladi. Oila qanday bo'lishidan qat'i nazar nizolardan mutlaqo xoh (himoyalangan, kafolatlangan) bo'la olmaydi. Chunki oiladagi shaxslararo munosabatlar odatda nizosiz bo'lmaydi. Bu nizolar ma'lum darajada er-xotin munosabatlarini rivojlantiruvchi katalizator vazifasini o'taydi. Lekin nizoning nizodan farqi bor. Ular kelib chiqishi, tashqi ifodalanishi, takrorlanib turish tezligi (soni) va nihoyat oqibatlariga ko'ra bir-birlaridan farqlanadi. Biror-bir maxsus mezon yo'qki, shunga asosan nizolarning qaytalanishi, kuchi, darajasi va boshqa ma'lumotlari (ko'rsatkichlari)ni aniq belgilab berish (olish) mumkin bo'lsa. Bunda hamma narsa subyektning o'ziga, uning shaxsiy, psixologik xususiyatlariga, yoshiga, jinsiga, uning qo'yilishiga, nizoning qanday idrok qilinishi va boshqa omillarga bog'liq bo'iadi.

Ma'lumki, bir-birlariga aynan o'xshash, mos ikki odamning bo'lishi mumkin emas, chunki shaxs va uning individualligi takrorlanmasdir. Shunday ekan ikki va undan ortiq shaxsdan (individ)dan tashkil topgan oila ham ikki, uch karra takrorlanmasdir. Bir oila uchun me'yorida bo'lgan shaxslararo munosabatlar tizimi, ikkinchi bir oilaga mutlaqo mos kelmasligi, yoki biron-bir oila uchun u qadar ahamiyatga ega bo'lмагan nizo va uning sababi boshqa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida jiddiy oqibatlar olib kelishi mumkin va hokazo<sup>3</sup>.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo`lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobjiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak.

## **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. D. Levinson. "Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik". Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (2013)
2. H. Makkubbin, S. Figli, "Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (2013).
3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyoziy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 b.
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifikatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 b.

<sup>2</sup> H. Makkubbin, S. Figli, "Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (2013).

<sup>3</sup> Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifikatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

**International Conference on Developments in Education**

**Hosted from Saint Petersburg, Russia**

**<https://econferencezone.org>**

**April 20<sup>th</sup> 2022**

- 
5. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 b.
  6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
  7. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffanining islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 b.
  8. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 b.